

Akademiklar bilan uchrashuv

2018-yil 4-iyul kuni O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Prezidiumida O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasi va O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta-maxsus ta'lim vazirligining Kasb-hunar ta'limi markazi bilan hamkorlikda tashkil etilgan "Yosh innovatsiyachi" ko'rik-tanlovi Respublika bosqichi g'oliblari mamlakatimizning ko'zga ko'ringan olimlari, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademiklari bilan uchrashuv o'tkazdilar. Uchrashuvda yosh innovatsiyachilar o'z faoliyatlarini yanada rivojlantirish borasida bevosita akademiklardan yo'nalishlar, qimmatli maslahatlar olishdi. Bunday tadbirlar va uchrashuvlar yoshlarga o'z salohiyatiga, o'z kelajagiga ishonch ruhini yanada qaror topishiga xizmat qilishi shubhasiz.



